



KADASTR LOYIHASINI ELEKTRON SHAKLGA KELTIRISH CHORA TADBIRLARI

Bazarbayeva Go'zal Rustam qizi

*"TIQXMMI" Milliy tadqiqot universitetining Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti. Yer kadastro va yerdan foydalanish yo'naliishi talabasi. Qarshi shahri.
O'zbekiston Respublikasi*

Annotatsiya: Respublikada aholi sonining toxtovsiz o'sib borishi oziq ovqat mahsulotlariga va xalq iste'mol mollariga bolgan talab-ning doimiy oshib borishiga olib keladi. Bu talabni qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni muntazam kopaytirib borish, ularning sifatini yaxshilash va turlarini kopaytirish evaziga qondirish mumkin. Agar respublikamizda qishloq xo'jaligida asosiy ishlab chiqarish vositalari bolgan yer va suv resurslarining cheklanganligini hisobga olsak, qishloq xojalik mahsulotlarini muntazam kopaytirib borishning yagona yoli qishloq xojaligini intensiv rivojlantirish va uni industrial asosga otkazish bolib qoladi. Erdan samarali foydalanishni tashkil qilish, tuproq unumdorligini doimiy oshirib borish, dehqonchilik madaniyatini kotarish, ilm-fan va texnika yutuqlaridan foydalanishga sturlioit yaratish, yerni va atrof muhitni qoriqlash hozirgi vaqtda er tuzishning asosiy vazifalari hisoblanadi.

Kalit so'zlar: "Geoinfocom", interaktiv, obyektlarining, "Yerelektron", veb-sayti, Uzkad, "E-yer nazorat".

Raqamlı iqtisodiyotga o'tish zamon talabi va O'zbekistonni yaqin yillarda rivojlantirishning asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Yangi avlod raqamlı texnologiyalari - sun'iy intellekt, simsiz aloqa texnologiyalari, internet va boshqalarning paydo bo'lishi sababli oxirgi vaqtda biznes va ijtimoiy sohadagi faoliyat modellari va ishslash prinsiplari tubdan o'zgarishiga olib kelmoqda. O'zbekistonning har bir sohalarida shiddat bilan rivojlanib borayotgan raqamlashtirish, axborot texnologiyalarini amaliyatga joriy etish bo'yicha ishlar boshqa sohalar kabi Kadastr agentligi tizimida ham samarali tashkil etilayotganligi, kadastr sohasini raqamlashtirish, zamonaviy IT-yechimlar orqali O'zbekistonning aholisi va tadbirkorlik subyektlariga bir qator qulayliklar yaratib berilmoqda. Bu haqida amalga oshirilayotgan ishlar xususida. Bugungi kunda Kadastr agentligi tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini yaxshilash, aholiga sifatli xizmat ko'rsatish va soha xodimlarining ish jarayonlarini yengillashtirish uchun raqamlı texnologiyalar va innovatsion yechimlarni tizimda keng joriy etilishi va qo'llanilishi bilan chambarchas bog'liq. Xususan, Kadastr agentligi tomonidan aholiga ko'rsatilayotgan xizmat turlari to'liq elektron shaklga



o'tkazilib, 11 ta xizmat turi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali va joylardagi Davlat xizmatlari markazlari orqali interaktiv shaklda buyurtmalar qabul qilinishi yo'lga qo'yilgan. Xizmat turlarini interaktiv shaklda ko'rsatilishini ta'minlash hamda xizmat turi sonini ko'paytirish borasida maqsadli rejalar belgilab olingan.Kadastr agentligi tizimidagi mavjud ko'chmas mulk obyektlarining arxiv hujjatlarini raqamlashtirilishi natijasida davlat boshqaruvi organlari va tashkilotlari o'rtasidagi o'zaro kelishuvga asosan ko'chmas mulk to'g'risidagi ma'lumotlarni elektron ko'rinishda online tarzda uzatish tizimi yo'lga qo'yildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 24 fevraldagagi "Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan foydalanish va muhofaza qilish tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5006-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida yerga oid huquqbuzarliklarni aniqlash, hujjatlar to'plamini shakllantirish va ularni ko'rib chiqish monitoringini yuritish bo'yicha "E-yer nazorat" avtomatlashtirilgan axborot tizimi ishlab chiqilib, Kadastr agentligining hududiy boshqarmalarining ish faoliyatiga tatbiq etildi.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 14 fevraldagagi "Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalarini xususiylashtirish to'g'risidagi 71-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida "Yerelektron" avtomatlashtirilgan axborot tizimi ishlab chiqilib, unda tadbirkorlik, ko'p qavatli turar joy binolarini, yoshlar sanoat zonalari, kichik sanoat zonalari, xalqaro yo'llar bo'yida xizmat ko'rsatish obyektlarini tashkil etish uchun yangi O'zbekiston massivlarida xizmat ko'rsatish obyektlarini tashkil etish uchun mo'ljallangan yer uchastkalarini auksion orqali solilishi uchun vakolatli tashkilotlar bilan kelishish jarayonini avtomatlashtirilib amaliyotga joriy etildi. Aholi tomonidan kadastr sohasida yuzaga kelayotgan muammoli masalalar yuzasidan murojaatlarni yo'llash va natijasi yuzasidan tezkor javob olishlari uchun Kadastr agentligining rasmiy kadastr.uz veb-sayti orqali online murojaatlarni qabul qilish imkoniyati yaratildi. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 3 avgustdagagi Jahon banki ishtirokida "Ko'chmas mulkni ro'yxatdan o'tkazish va kadastr tizimlarini modernizatsiya qilish" loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2571-son qaroriga asosan Kadastr agentligi va Jahon banki missiyasi o'rtasida "Kadastr va ro'yxatga olishning yagona axborot tizimi-Uzkad"ni sohaga joriy qilish borasida keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. Jumladan bugungi kunga kelib, qishloq xo'jaligi, o'rmon xo'jaliklari yerlari, avtomobil yo'llar, suv fondi, tabiatni muhofaza qilish maqsadlariga mo'ljallangan, davlat zaxira yerlari to'g'risidagi ma'lumotlar Uzkad tizimi ma'lumotlar bazasiga kiritildi. Kelgusida, mavjud axborot tizimlaridagi qishloq xo'jaligi yer maydonlari, ko'chmas mulk



obyektlari to'g'risidagi umumiy ma'lumotlarning yaxlit bazasini yaratish orqali "Elektron hukumat" tizimi doirasida aholiga Kadastr agentligi tomonidan tezkor va sifatli ko'rinishdagi elektron davlat xizmatlarining taqdim etilishi ta'minlanadi. Shu bilan birga so'ngi yillarda mamlakatimiz rahbari tomonidan olib borilayotgan oqilona siyosat natijasida vujudga kelayotgan tub o'zgarishlar Kadastr sohasida ham o'z natijasini bermoqda.

Xulosa: Ya'ni, mazkur sohada zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash hamda mavjud qog'oz shaklidagi kadastr hujjatlarini raqamli ko'rinishga keltirish natijasida kadastr organlarining ish jarayonlari shaffof ko'rinishga kelib mavjud bo'lgan byurokratik to'siqlar va korrupsion holatlar bartaraf etilmoqda

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i PF-4947-son Farmoni bilan tasdiqlangan «2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi»
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yerlarni muxofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish borasida nazoratni kuchaytirish, geodeziya va kartografiya faoliyatini takomillashtirish, davlat kadastrlari yuritishni tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 2018 yil 8 fevraldag'i PF-5065 sonli farmoni.